



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2024-yil 21-dekabr, № 264 (8887)

Shanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK HARAKATI ORTGA QAYTARIB BO'LMAYDIGAN KATTA KUCHGA AYLANDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 20-dekabr kuni mamlakatimizdagi faol tadbirkorlar bilan uchrashdi. Videoselektor shaklida o'tgan muloqotda sohani qo'llab-quvvatlash bo'yicha yil yakunlari va 2025-yilga mo'ljallangan rejalar muhokama qilindi.



Uchrashuv avvalida davlatimiz rahbari nutq so'zlab, bu boradagi asosiy maqsad va natijalarni ko'rsatib o'tdi. — Tadbirkorlikni rivojlantirish — biz uchun strategik vazifa. Bizning tayanchimiz ham, suyanchimiz ham, eng katta kuchimiz ham shu sohada mujassam. Shu bois tadbirkorlarni

qo'llab-quvvatlash markazdan tortib eng quyi bo'g'ingacha — barcha rahbarlarning kundalik ishi bo'lishi shart. Ayniqsa, joylarda hokimlar har bir tadbirkor bilan ko'proq muloqot qilib, korxonalariga borib, ularning dardi bilan yashashi kerak. Biz katta iqtidor egalari bo'lgan biznes vakillarini asrab-

avaylashimiz zarur. Ular biz uchun juda qadri insonlar, — dedi Shavkat Mirziyoyev. Ushbu jihatdan kelib chiqib O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha jamoatchilik kengashi tuzilgan. Bu kengash davlat

va tadbirkorlar o'rtasida ko'prik bo'lib, aniq takliflarni bildirib kelmoqda. Joriy yilning o'zida tadbirkorlar faoliyati uchun g'oyat muhim bo'lgan 5 ta qonun, 101 ta Farmon va qaror qabul qilindi. So'nggi yillarda iqtisodiyotimizda pul ko'paydi. Bu investitsiya loyihalarini barqaror moliyalashtirishga asos

bo'lmoqda. Jumladan, korxonalarining banklardagi mablag'lari 20 trillion so'mga oshib 107 trillion so'mga, aholi omonatlari 25 trillion so'mga ko'payib, 105 trillion so'mga yetgan. Yil yakuni bilan ajratilgan jami kreditlar 275 trillion so'mni tashkil qiladi. 2025-yilda bu ko'rsatkich 300 trillion

so'mdan oshishi hisob-kitob qilingan. Ayniqsa, kichik biznesga beriladigan kreditlar ulushi hozirgi 28 foizdan 40 foizga oshirilib, 120 trillion so'mga yetkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING TADBIRKORLAR BILAN UCHRASHUVDAGI NUTQI

Assalomu alaykum, qadri vatandoshlar! Hurmatli tadbirkorlar!

Bugun — Yangi yil ostonasida eng faol tadbirkorlikni rivojlantirish — biz uchun strategik vazifa. Bizning tayanchimiz ham, suyanchimiz ham, eng katta kuchimiz ham shu sohada mujassam.

Shu bois tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash markazdan tortib eng quyi bo'g'ingacha — barcha rahbarlarning kundalik ishi bo'lishi shart. Ayniqsa, joylarda hokimlar har bir tadbirkor bilan ko'proq muloqot qilib, korxonalariga borib, ularning dardi bilan yashashi kerak.

Biz katta iqtidor egalari bo'lgan biznes vakillarini asrab-avaylashimiz zarur. Ular biz uchun juda qadri insonlar.

Shu o'rinda Tadbirkorlarning jamoatchilik kengashi a'zolari davlat va tadbirkorlar o'rtasida

40 foizga oshirilib, 120 trillion so'mga yetkaziladi.

Tadbirkorlarimiz ehtiyojidan kelib chiqib banklarimiz 2025-yilda chetdan davlat kafolatsiz 6 milliard dollar olib kelish bo'yicha o'ziga vazifa oldi. Faktoringga keng yo'l ochib berganimiz natijasida shu yilning o'zida 100 million dollarlik shunday xizmatlar ko'rsatildi.

Biznes uchun yo'l, suv, elektr, gaz, temir yo'l kabi infratuzilma obyektlarini yaxshilashga bu yil 35 trillion so'm yo'naltirildi. Kelgusi yilda yana 43 trillion so'm yo'naltirish rejalashtirilgan.

Korxonalarini barqaror energiya bilan ta'minlash uchun elektr ishlab chiqarish 82 milliard kilovatt-soatga yetdi. Bu yil ishga tushirilgan 6,3 milliard dollarlik 17 ta yirik "yashil" va yangi texnologiyaga asoslangan energiya quvvatlari hisobiga kelgusi yilda qariyb 90 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqariladi.

Bu ishlar davom ettirilib, 2025-yilda 6,4 milliard dollarlik 25 ta loyiha doirasida 4,8 gigavatt yangi quvvatlar barpo etiladi.

Hozirgi kunda yurtimizda mustaqil energiya ishlab chiqaruvchilar soni 24 taga yetdi. Endi

energetika sohasida ham raqobatga asoslangan bozorga o'tish vaqti keldi.

Ilk bor 2025-yilda elektr energiyasining onlayn ulgurji bozori ishga tushadi. Tajriba sifatida Samarqand, Jizzax va Sirdaryo viloyatlaridagi elektr tarmoqlari xususiy sektorga beriladi. Natijaga qarab bu amaliyotni qolgan viloyatlarda ham joriy etamiz.

Turizm sohasida ham katta ishlar qilindi. Tadbirkorlarning 6,5 trillion so'm sarmoyasi hisobiga jami 24 ming o'rinni mehmonxonalar ishga tushirildi.

Kelgusi yilda mehmon o'rinlari soni yana 30 mingtaga oshadi. Tadbirkorlar buning uchun 10 trillion so'm investitsiya kiritishga tayyor. Bu yil ishga tushirilgan 17 ta yirik savdo va turistik maskani yoniga kelgusi yili "Piramit Tower", "Beldersoy resort", "Arda Khiva" kabi yana 25 ta shunday maskanlar qo'shiladi.

O'tgan hafta Bo'stonlikda 10 milliard dollarlik "Dengiz shabadasini" nomli yirik markazni barpo etishni boshlashga kelishib oldik. Shuningdek, mamlakatimizga dunyoning nufuzli "Swissotel", "Sheraton", "Ritz-Carlton", "Novotel", "Pullman", "Marriott", "Ibis", "Mercure" kabi 23 ta mehmonxona brendlari kirib kelmoqda.

Savdoni rivojlantirish bo'yicha alohida kompaniya ochib, eksportni moliyalashtirish uchun 350 million dollar ajratdik. Natijada bu mablag'dan berilgan har 1 dollar hisobiga tadbirkorlar 6 dollarlik eksport qildi. Kelgusi yilda ushbu maqsadlar uchun yana 300 million dollar yo'naltiramiz.

Tadbirkorlar bu yil 11,5 trillion so'mlik 3 mingta davlat mulki va 4 ming gektar yer sotib olib, o'z biznesini boshladi. Kelayotgan yilda yana 4,5 mingta bino va 6 ming gektar yer tadbirkorlarga taklif qilinadi.

Uzoq yillardan buyon davlat monopoliyasida bo'lgan yo'llarni ta'mirlash va saqlashga xususiy sektorni jalb qilish ishlari kengaytiriladi. Bu yil 260 kilometr yo'llarga xizmat ko'rsatish bo'yicha ishlar tadbirkorlarga berildi. Kelgusi yilda bu ko'rsatkich 3 ming kilometrga yetkaziladi.

"Tashabbusli byudjet" loyihasi doirasida yo'llarni ta'mirlash ishlarining 92 foizi xususiy pudratchilar tomonidan amalga oshirildi. Kelgusida bu ko'rsatkichni 100 foizga yetkazamiz. Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida 86 ta tumanda 841 kilometr yo'lni qurish to'liq mahalliy pudratchilar tomonidan amalga oshiriladi.

MAMLAKATIMIZ IQTISODIYOTINING TAYANCHI VA SUYANCHI

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha joriy yil yakunlari va 2025-yilga asosiy rejalar yuzasidan bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishi hamda yetakchi tadbirkorlar bilan muloqotdan:

■ joriy yilning o'zida tadbirkorlar faoliyati uchun g'oyat muhim ahamiyatga ega bo'lgan **5 ta** qonun, **101 ta** Farmon va qaror qabul qilindi;

■ korxonalarining banklardagi mablag'lari **20 trillion** so'mga oshib, **107 trillion** so'mga yetdi. Aholi omonatlari ham **25 trillion** so'mga ko'payib, **105 trillion** so'm bo'ldi;

■ yil yakuni bilan ajratilgan jami kreditlar **275 trillion** so'mni tashkil qiladi. 2025-yilda bu ko'rsatkich **300 trillion** so'mdan oshishi hisob-kitob qilingan;

■ kichik biznesga beriladigan kreditlar ulushi **28 foizdan 40 foizga** oshirilib, **120 trillion** so'mga yetkaziladi;

■ tadbirkorlar ehtiyojidan kelib chiqib mamlakat banklari 2025-yilda chetdan davlat kafolatsiz **6 milliard** dollar jalb qilishi rejalashtirilgan;

■ faktoringga keng yo'l ochib berilgani natijasida shu yilning o'zida **100 million** dollarlik bunday xizmatlar ko'rsatildi.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING TADBIRKORLAR BILAN UCHRASHUVDAGI NUTQI

Temir yo'l sohasida raqamlashtirish va operatsion samaradorlikni oshirish hisobiga yuk tashish muddatlari 40 foizga qisqardi. Eng muhimi, stansiyalarda yuklarni to'lovsiz tushirish vaqti 2 soatdan 3 kunga uzaytirilgani uchun tadbirkorlar yiliga 57 milliard so'm mablag' tejamoqda.

Aviatsiya sohasida ham xususiy sektorning roli oshib bormoqda. Bugungi kunda xususiy aviakompaniyalar soni 14 taga yetdi. Qo'shimcha 6 ta yul va 16 ta yo'lovchi havo kemasi olib kelindi. Buxoro, Namangan aeroportlari xususiy sheriklikka berildi, Andijon va Urganch aeroportlari bo'yicha tender davom etmoqda.

Mintaqadagi eng qulay va jozibador biznes muhitini saqlab qolish uchun barqaror soliq siyosatini davom ettiramiz. Jumladan, hayotiy zarur xarajatlarni moliyalashtirish uchun byudjet tushumlari qanchalik zarur bo'lmasin, asosiy soliqlar bo'yicha stavkalar o'zgaraydi.

Shuningdek, 1-yanvardan boshlab yer yoki davlat mulki qo'shimcha qiymat solig'isiz sotiladi, mobil aloqa uchun aksiz solig'i bekor qilinadi, shahar chegarasidagi qishloq yerlariga 2 karra yer solig'ini hisoblash to'xtatildi, nashriyot va matbaa korxonalarini foyda solig'ini to'lashdan 5 yil muddatga ozod etiladi.

Bundan tashqari, IT-park rezidentlariga barcha turdagi soliqlarni to'lashdan ozod etish bo'yicha berilgan imtiyozlar 2040-yilgacha uzaytiriladi, xususiy maktab va bog'chalar, xorijiy o'qituvchi va mutaxassislar uchun berilgan barcha soliq imtiyozlari 2030-yilgacha amal qiladi.

Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonlari yakuniy bosqichga kirib bormoqda. AQSH, Xitoy kabi yirik davlatlar bilan kelishuvlarga erishdik.

To'g'ri, Jahon savdo tashkiloti qoidalariga zid bo'lgan imtiyozlarni bekor qilyapmiz. Shu bilan birga, davlat tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash, ular adolati raqobat muhitida ishlashi uchun zarur bo'lgan barcha sharoitlarni yaratishda davom etadi.

Bu yil qo'shnilarimiz bilan chegaradan kirib-chiqish bilan bog'liq bar qator masalalarga yechim topdik. Xususan, Andijon viloyatidagi 13 yil yopiq bo'lgan "Xonobod", "Mingtepa" va "Qorasuv" chegara postlari hamda 8 yil ishlamagan "Uchqo'rg'on" posti tiklandi. Natijada aholi va tadbirkorlarning yo'li 100 kilometrqa qisqardi.

Umuman, joriy yilning o'tgan 11 oyida chegara orqali harakatlangan transportlar soni 400 mingtaga oshib, 3 millonga yetdi.

Kelgusi yilda "G'ishtko'pri", "Navoiy", "Dovut ota", "Shovot" va "Gulbahor" chegara postlarida qo'shimcha koridorlar qurilib, o'tkazish quvvati 5 karra oshiriladi.

Umuman, bugungi murakkab geosiyosiy sharoitga qaramasdan iqtisodiyotimiz 6,3 foizga oshib, 111 milliard dollardan ko'paydi. Sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohasiga 38 milliard dollar investitsiya kiritildi, eksport 26 milliard dollardan oshdi.

Yaqin-yaqingacha bunday raqamlarni tasavvur ham qila olmas edik.

Eng muhimi, bularning barchasini avvalo sizlar – faol tadbirkorlar bilan birgalikda uddaladik.

Sizlar bilan kechgan ochiq muloqotda ko'p tadbirkorlarning o'z zimmasiga ijtimoiy mas'uliyat olib, ehtiyojmand odamlarni ishli qilishga tayyor ekanini bildirgan edi. O'tgan qisqa vaqt davomida

tadbirkorlarimiz 387 ming nafar kambag'al oila a'zolari va 40 ming nafar nogironligi bor odamni daromadli qildi.

Mamlakatimizda kambag'allik darajasi yil yakuni bilan 9 foizdan pasayadi. Aminmanki, o'zaro ishonchga asoslangan hamkorligimizni shu sur'atda davom ettirajak, kelgusi yillarda bu ko'rsatkichni 6 foizga tushiramiz.

Shu o'rinda va'dasining ustidan chiqib, yangi quvvatlar hisobiga minglab ish o'rinlari yaratayotgan, zamonaviy texnologiya olib kirayotgan, yangi tashqi bozorlarni zabt etayotgan, iqtisodiyotimizning barqaror o'sishiga munosib hissa qo'shayotgan barcha tadbirkorlarimizga chin dildan minnatdorlik bildiraman.

Kelgusi yilda marrani katta olib yalpi ichki mahsulotni 120 milliard dollarga, investitsiyani 42 milliard, eksportni 30 milliard dollarga yetkazishni reja qilyapmiz. Banklar tarmoq va hududlar bilan 5 million aholini band qilish, 1,5 million odamni kambag'allikdan chiqarish bo'yicha ishlaydi.

Bu marralarga erishish uchun, albatta, sizlar kabi tadbirkorlarimiz yordamiga tayanamiz. Shuning uchun ham bugun sizlar bilan uchrashib, ayrim masalalarni ochiq-oydin gaplashib olishga qaror qildim.

Birinchidan, mahallabay ishlaganimiz natijasida shu yilning o'zida xususiy sektorda daromad solig'i to'lovchilar soni 365 mingtaga ko'paydi.

Bu yaxshi albatta. Endigi vazifamiz – ularning daromadini oshirib, munosib hayot kechirishi uchun yetarli sharoit yaratishdan iborat.

Nega bu masalani alohida ta'kidlab aytayman? Xususiy sektordagi ishchilarning 30 foizida rasmiy oylik maoshi 1 million so'mdan kam qilib ko'rsatilgan. Ayniqsa, Qoraqalpog'iston, Qashqadaryo, Samarqand, Surxondaryo, Sirdaryo va Xorazm viloyatlarida bu masala juda dolzarb. Bunday holat, asosan, to'qimachilik, qurilish, qishloq xo'jaligi, savdo va umumiy ovqatlanish sohaslarida uchrayapti. Lekin ko'rsatilayotgan bu oylik ish haqi haqiqatga qanchalik mos keladi?

Birgina misol. To'qimachilik korxonalarini bo'sh ish o'rinlariga 50 ming odam izlamogda. Ular "3 million so'mgacha oylik, bepul ovqat va yo'lkira to'lashga tayorman", deb e'lon beryapti. Hisobotda esa oylik maosh va soliqlar miqdorini ancha kam qilib ko'rsatmoqda.

Yaqinda to'qimachilik va charm sanoati korxonalarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha tegishli hujjat qabul qilimiz. Bu sohalarda kamida 2,5 million so'm oylik maosh to'laydigan, 15 foiz ishchisi ehtiyojmand oiladan bo'lgan tayyor mahsulot chiqaruvchi tadbirkorlarga yengilliklar beramiz. Bunday korxonalar uchun foyda solig'i ham, ishchisining daromad solig'i miqdori ham 1 foiz etib belgilanadi.

Bu imtiyozga javoban to'qimachilik va charm sanoati korxonalarini 50 ming ehtiyojmand odamni ishga olmoqda. Boshqa tarmoqlar uchun ham bu yil tugaydigan imtiyozlarni mana shunday ijtimoiy mezon bilan uzaytirishga tayyormiz.

Elektrotexnika, qurilish materiallari, savdo va xizmatlar sohasidagi katta-katta ish beruvchilar ham kelgusi yilda kamida 300 ming aholini kambag'allikdan chiqarish bo'yicha o'ziga ijtimoiy majburiyat olsa, ulardan minnatdor bo'lar edim.

Ikkinchidan, iqtisodiy o'sish rejalariga chiqish

uchun tadbirkorlarning loyihalari uchun zarur mablag'larni topib beryapmiz.

Yirik davlat kompaniyalarini transformatsiya qilib, tashqi bozorga chiqaryapmiz. Ular ham harakat qilib, o'zi pul olib kelishni boshladi.

Endi tadbirkorlarimiz ham banklar beradigan kredit bilan cheklanib qolmasdan, xalqaro standartlarga moslashib, chetdan mustaqil resurs jalb qiladigan vaqt keldi. Eng muhimi, xalqaro moliya tashkilotlari bu borada biz bilan yaqindan hamkorlik qilishga tayyor.

Mana, "Korzinka" supermarketlar tarmog'i, Samarqand viloyatidagi "Meror farm", "Sam Rafoat tekstil", Xorazm viloyatidagi "Tillo Domor" kabi faol korxonalar bu ishlarni boshlagan. Bunday tadbirkorlarimizni 50 – 100 taga yetkazish uchun nima qilish kerak?

Savdo-sanoat palatasi raisi D. Vahobovga bu yo'nalishda xalqaro konsalting kompaniyalarini jalb qilib, ikki oyda tadbirkorlarning tashqi moliya bozorlariga chiqishiga ko'maklashadigan markaz ochish vazifasi topshirildi. Bu orqali kelgusi yilning o'zida kamida 100 ta mahalliy kompaniyani xalqaro moliya bozorlari bilan ishlashga o'rgatish zarur.

Uchinchidan, mamlakatimizda ham 5 mingdan ziyod ishchisi bor, yillik daromadi 1 trillion so'mdan oshgan, kamida 100 milliard so'm miqdorda soliq to'layotgan 142 nafar "champion" tadbirkorlar paydo bo'ldi.

Bu korxonalar eng ilg'or texnologiyalar va yangicha boshqaruvni joriy etgan, o'zlar arzon resurs olib kelmoqda, kredit va soliq to'lovlarini o'z vaqtida to'layapti, muddati o'tgan qarzi yo'q. Muhimi, har kuni yangilikka intilib, izlanishdan to'xtamayapti. Ular bir tarmoqli kompaniyadan ko'p tarmoqli korporatsiyaga aylanib, yondosh sohalarda rivojiga ham katta hissa qo'shayapti.

Biz boshqa salohiyatli tadbirkorlarimizni ham qo'lidan mahkam ushlab, sharoit yaratib, qo'llab-quvvatlab, "champion" tadbirkorlarni ko'tarishimiz va ko'paytirishimiz kerak.

Bunday tadbirkorlarga yer va binoni to'g'ridan-to'g'ri berishga, davlat korxonalarini ham uzoq muddatga boshqaruvga topshirishga tayyormiz. Faqat tegishli qarorlarda ko'rsatilgan obyektlar bilan cheklanmasdan, Hukumatning rejasida bo'lmagan takliflarni ham ko'rib chiqib, unikal obyektlarni ham xususiy sheriklikka beramiz.

Harbiy sanoat, dronlar ishlab chiqarish, IT va sun'iy intellekti keng rivojlanishida ular bilan manfaatli hamkorlikni yo'lga qo'yishga chaqiramiz. Bosh vazir A. Aripov har chorakda, Bosh vazir o'rinbosarlari, vazirlar, banklar va hokimlar esa har oyda bunday tadbirkorlar bilan uchrashib, ularning korxonasiga borib, har biri bo'yicha masalalarni joyida hal qilib beradi.

Bu ishlar Prezident nazoratida bo'ladi.

Tadbirkorlarimizning eksport borasidagi ishlarni qo'llab-quvvatlash, bu sohada yuzaga kelayotgan ayrim masalalarni hamkorlarimiz bilan bir stolda o'tirib muhokama qilib, o'zaro manfaatli yechim topish zarur. Kerak bo'lsa, ichki bozorni himoyalash uchun kerakli javob choralarini ko'rish lozim.

Bosh vazir o'rinbosarlari J. Qo'chqorov, J. Xo'jayev, investitsiyalar, sanoat va savdo vaziri L. Qudratovga bir hafta muddatda tadbirkorlar bilan gaplashib, tarif va notarif siyosatimizga yangicha yondashuvlarni joriy qilish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish, Jamoatchilik kengashi bilan shu

kabi masalalarga tezkor yechim topish uchun Soliq va bojxona masalalari bo'yicha tashabbuslar platformasini tashkil qilish vazifasi topshirildi.

Bu platforma kelgusi yil yanvar oyidan ishga tushishi kerak va har bir tashabbus tadbirkorlar ishtirokida Jamoatchilik kengashida muhokama qilib borilishi shart.

To'rtinchidan, dunyodagi 10 ta eng boy kompaniyaning 7 tasi IT va moliyaviy xizmat sohalaridan chiqqan.

Mamlakatimiz aholisi 40 millonga yaqinlashmoqda, uning 56 foizi yoshlardan iborat. Shu raqamlarning o'zi sohada katta salohiyat, ish o'rni, yuqori daromad mavjud ekanini ko'rsatadi.

IT, moliyaviy xizmatlar, innovatsiyalar, telekommunikatsiya kabi sohalarni xususiy korxonalar tez rivojlantiradi. Yaratib berilgan sharoit hisobiga qiymati 1 milliard dollardan oshgan "TVS O'zbekiston" va "Uzum" xususiy kompaniyalari paydo bo'lganini bunga yaqqol misol sifatida keltirish mumkin.

Bunday kompaniyalar ko'payishi uchun mavjud to'siqlarni bartaraf etib, hamma sharoitni yaratishga tayyormiz. Xususan, ularga rivojlanish va tadqiqot markazlari uchun laboratoriya jihozlarni, texnologik uskunalarini bojsiz olib kelishga ruxsat beramiz.

IT, moliyaviy xizmatlar, tadbirkorlikni moliyalashtirish, eksport, turizm, xizmatlar, "yashirin iqtisodiyot"ni qisqartirish kabi dolzarb masalalar bo'yicha Jamoatchilik kengashida ekspert guruhlarni tashkil qilish kerak.

Bu guruhlar har oyda bir marta tadbirkorlar bilan uchrashib, tizimli muammolarni hal etish bo'yicha takliflarni Jamoatchilik kengashi muhokamasiga kiritib boradi.

Jamoatchilik kengashiga yana bir muhim masalani topshirmoqchiman.

Oxirgi 3 yilda Bojxona kodeksining 100 dan ortiq moddasiga o'zgartirish kiritildi. Lekin uning qoidalari Jahon savdo tashkilotining ham, tadbirkorlarning ham talabiga qos emas.

Shu bois J. Qo'chqorov, D. Vahobov Jamoatchilik kengashi a'zolari hamda Qonunchilik palatasi deputatlari bilan chuqur muhokamalar o'tkazib, kelgusi yil 1-maygacha har tomonlama yangilangan Bojxona kodeksi loyihasini ishlab chiqish uchun mas'ul bo'ldi.

Beshinchidan, ichki bozor bilan cheklanib, eksport masalasi bilan jiddiy shug'ullanmasak "champion" tadbirkorlar ko'paymaydi, xalqimiz boyimaydi. Valyuta balansini ta'minlash ham qiyin bo'ladi.

Salohiyatimiz yuqori bo'lgan to'qimachilik, elektrotexnika, oziq-ovqat sanoati kabi sohalarda 30 foiz imkoniyatlarni ishlatyapmiz xolos. Hozir ip-kalavani qayta ishlash darajasi 50 foiz bo'lsa, bu xom ipakda – 75 foiz, misda – 64 foiz, meva-sabzavotda esa 16 foizni tashkil etmoqda.

Mamlakatimizdagi 1 mingga yaqin konlarda 100 dan ortiq turdagi mineral xomashyo bazasi mavjud. Tasdiqlangan zaxiralarmiz qariyb 1 trillion dollarga baholangan. Yildan-yilga qazib olinishi ko'paytiraymiz. Lekin sanoatda yuqori texnologik ishlab chiqarish ulushi 25 foizni tashkil etadi. Albatta, bu kam.

Yanvar oyida auksionga chiqariladigan 400 ta yangi konning ro'yxatini tasdiqlab, tadbirkorlarga e'lon qilimiz.

Shu bois xomashyoni chuqur qayta ishlab,

yuqori qo'shilgan qiymat va eksportni keskin oshirish bo'yicha yangi tashabbuslarimizni eshitishga tayyormiz.

Umuman, J. Qo'chqorov, D. Vahobovga tegishli tarmoqlar mas'ullari bilan birgalikda ikki oy muddatda har bir xomashyo yuzasidan chuqur qayta ishlash va yuqori texnologik ishlab chiqarishni tashkil qilish bo'yicha besh yillik dastur ishlab chiqish vazifasi topshirildi.

Yana bir masala – tadbirkorlar meva-sabzavotni, asosan, tomoqadan olayotgani uchun eksportga bir turdagi mahsulotni uzluksiz va sifatli yetkazib berishga qiyinlayapti. Shuning hisobiga eksportdan kelayotgan tushum ham past.

Kelgusi yilda 3,5 milliard dollarlik meva-sabzavot eksport qilish uchun barcha imkoniyat bor. Shu bois 1 million gektar meva-sabzavot yerlarini 760 ta urug' yetishtiruvchi va 824 ta eksportchi korxonaga nomma-nom birkirtirdik. Bu ishlarni har bir mahallada tizimli tashkil qilish uchun O'simliklar karantini va himoyasi agentligi va banklarning 5 mingga yaqin xodimlari birkirtirildi.

Shuningdek, Toshkent va Namangan viloyatlarida yangi tajribani boshlayapmiz. Bunda paxta va g'alladan bo'shaydigan yerlar 50 gektargacha yirik lotlarda auksionga qo'yilib, sanoatlashgan plantatsiya tashkil etish uchun professional investorlarga sotiladi.

Bu yerlardagi 20 sotixgacha maydonda "shok" usulida muzlatkich, kalibrovka va qadoqlash sexlari qurishga ruxsat beriladi. Yetishtirilgan meva-sabzavotni qayta ishlash uchun xarid qilingan uskunalariga 1 milliard so'mgacha subsidiya ajratiladi.

Qadrlif biznes vakillari! Barchamiz tadbirkorlikni rivojlantirish uchun birgalikda harakat qilsak, bugun belgilab olgan maqsadlarimizga albatta erishamiz.

Bir fikrni doimo esda tutishingizni istar edim: O'zbekistonda tadbirkorlik harakati ortga qaytarib bo'lmaydigan katta kuchga aylandi.

Biz davlat miqyosida qanday katta maqsad va vazifalarni o'z oldimizga qo'yamaylik, ularni amalga oshirishda butun xalqimiz bilan birga, avvalo, sizlarga tayanamiz.

Sizlarni Yangi O'zbekistoni barpo etish yo'lidagi hal qiluvchi kuch, deb bilimiz.

Tadbirkorlarimiz qancha boy bo'lsa, xalqimiz shuncha farovon yashaydi, davlatimiz shuncha qudratli bo'ladi.

Tadbirkorning yutug'i – bu butun xalqimizning yutug'i.

Ana shunday oliyanob ishda men doimo sizlar bilan birgaman. Sizlar ezgu maqsad bilan ilgari suradigan har qanday g'oya va tashabbusni qo'llab-quvvatlashga tayyorman.

Ishonchim komil, o'z navbatida, sizlar ham jamiyatimizning eng ilg'or vakillari bo'lib, islohotlarimizni yanada ilgari surishda Prezidentga tayanib va suyanib bo'lasizlar.

O'z shaxsiy ibratiningiz bilan yurtimizda ilg'or tadbirkorlar maktabini yaratishga munosib hissa qo'shasiz, deb ishonaman.

Fursatdan foydalanib, barcha tadbirkorlarimizni yaqinlashib kelayotgan Yangi yil bilan chin dildan tabriklayman.

Barchangizga sihat-salomatlik, ulkan yutuq va omadlar, xonadonlaringizga baxt, fayzu baraka tilayman.

O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK HARAKATI ORTGA QAYTARIB BO'LMAYDIGAN KATTA KUCHGA AYLANDI

Tadbirkorlar ehtiyojidan kelib chiqib banklar 2025-yilda chetdan davlat kafolatisiz 6 milliard dollar olib kelishni rejalashtirgan. Faktoringga keng yo'l ochilgani natijasida shu yilning o'zida 100 million dollarlik bunday xizmatlar ko'rsatilgan.

Biznes uchun yo'l, suv, elektr, gaz, temir yo'l kabi infratuzilmalar uchun bu yil 35 trillion so'm yo'naltirilgan. Kelgusi yil yana 43 trillion so'm ajratilishi rejalashtirilgan.

Korxonalarini barqaror energiya bilan ta'minlash uchun elektr ishlab chiqarish 82 milliard kilovatt-soatga yetdi. Bu yil ishga tushgan 6,3 milliard dollarlik 17 ta energiya quvvatlarini hisobiga kelgusi yilda qariyb 90 milliard kilovatt-soat elektr ishlab chiqariladi. Mazkur ishlarni davom ettirib, 2025-yilda yana 6,4 milliard dollarlik 25 ta loyiha doirasida 4,8 gigavatt yangi quvvatlar barpo etiladi.

Hozirgi kunda yurtimizda mustaqil energiya ishlab chiqaruvchilar soni 24 taga yetdi. 2025-yilda ilk bor elektr energiyasining onlayn ulgurji bozori ishga tushadi. Tajriba sifatida Samarqand, Jizzax va Sirdaryodagi elektr tarmoqlari xususiy sektorga beriladi.

Turizm sohasi ham rivojlanmoqda. Tadbirkorlarning 6,5 trillion so'm sarmoyasi bilan 24 ming o'rinli mehmonxonalar ishga tushdi. Kelgusi yilda mehmon o'rinlari yana 30 mingga oshadi. Bu yil ishga tushgan 17 ta yirik savdo va turistik maskan yoniga

kelasi yili yana 25 ta shunday majmua qo'shiladi.

Savdoni rivojlantirish bo'yicha alohida kompaniya tashkil etilib, eksportni moliyalashtirish uchun 350 million dollar berildi. Natijada bu mablag'dan berilgan har 1 dollar orqali tadbirkorlar 6 dollarlik eksport qildi. Kelasi yil yana 300 million dollar yo'naltiriladi.

Tadbirkorlar bu yili 11,5 trillion so'mlik 3 mingta davlat mulki va 4 ming gektar yerni sotib olib biznesini boshladi. Kelgusi yil yana 4,5 ming bino va 6 ming gektar yer tadbirkorlarga taklif qilinadi.

Uzoq yillardan beri davlat monopoliyasida bo'lgan yo'llarni ta'mirlash va saqlashga xususiy sektorni jalb qilish kengaytiriladi. Bu yil 260 kilometr yo'llarni saqlash ishlari tadbirkorlarga berildi. Kelasi yili bu 3 ming kilometrqa yetkaziladi. Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida 86 ta tumanda quriladigan 841 kilometr yo'llar to'liq mahalliy pudratchilar tomonidan amalga oshiriladi.

Temir yo'l sohasida raqamlashtirish va operatsion samaradorlikni oshirish hisobiga yuk tashish muddatlari 40 foizga qisqardi. Muhimi, stansiyalarda yuklarni to'lovsiz tushirish vaqti 2 soatdan 3 kunga uzaytgan uchun tadbirkorlar yiliga 57 milliard so'm tejayapti.

Aviatsiya sohasida xususiy kompaniyalar soni 14 taga yetdi. Qo'shimcha 6 ta yul va 16 ta yo'lovchi havo kemasi olib kelindi. Buxoro, Namangan aeroportlari xususiy sheriklikka

berildi, Andijon va Urganch aeroportlari bo'yicha tender davom etyapti.

Davlatimiz rahbari qulay va jozibador biznes muhitini saqlab qolish uchun barqaror soliq siyosatini yuritilishini ta'kidladi.

Jumladan, hozirgi kunda byudjet tushumlari qanchalik zarur bo'lmasin, asosiy soliqlar bo'yicha stavkalar o'zgaraydi. Shuningdek, 1-yanvardan boshlab yer yoki davlat mulki qo'shilgan qiymat solig'isiz sotiladi, mobil aloqa uchun aksiz solig'i bekor qilinadi. Shahar chegarasidagi qishloq yerlariga 2 karra yer solig'ini hisoblash to'xtatildi. Nashriyot korxonalarini foyda solig'ini to'lashdan 5 yilga ozod etiladi.

Bundan tashqari, IT-park rezidentlariga barcha turdagi soliqlarni to'lashdan ozod etish bo'yicha imtiyozlar 2040-yilgacha uzaytiriladi. Xususiy maktab va bog'chalar, xorijiy o'qituvchi va mutaxassislar uchun berilgan barcha soliq imtiyozlari 2030-yilgacha amal qiladi.

Ma'lumki, O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayoni yakuniy bosqichga kiriyapti. Iqtisodiyotda bu tashkilot qoidalariga zid bo'lgan imtiyozlar bekor qilinayapti. Shu bois tadbirkorlarning adolati raqobat muhitida ishlashi uchun barcha sharoit yaratilishi aytiladi.

Biznes uchun transport va logistika masalasi juda muhim. Shu bois qo'shni davlatlar bilan kelishilib "Xonobod", "Mingtepa", "Qorasuv" va "Uchqo'rg'on" chegara postlari tiklandi. Kelgusi yilda "G'ishtko'pri", "Navoiy", "Dovut ota",

"Shovot" va "Gulbahor" chegara postlarida qo'shimcha koridorlar qurilib, o'tkazish quvvati 5 karra oshiriladi.

Umuman, murakkab geosiyosiy sharoitga qaramay bu yil mamlakatimiz iqtisodiyoti 6,3 foizga oshib, 111 milliard dollardan ko'paydi. Sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohasiga 38 milliard dollar investitsiya kirdi, eksport 26 milliard dollardan oshdi.

Davlatimiz rahbari bu natijalarda, aholini ish bilan ta'minlash va kambag'allikni qisqartirishda tadbirkorlarning o'rni katta ekanini ta'kidlab, ularga minnatdorlik bildirdi.

Bu sur'atni davom ettirib, kelgusi yilda yalpi ichki mahsulotni 120 milliard dollarga va eksportni 30 milliardga yetkazish, 42 milliarddan ziyod investitsiya jalb etish mo'ljallanmoqda.

Ushbu marralarga erishish uchun tadbirkorlikka yanada keng imkoniyatlar berish zarur. Uchrashuvda shular haqida fikr almashildi. Tadbirkorlar biznes qoidalarini soddalashtirish, xomashyoni chuqur qayta ishlash, yuqori qo'shilgan qiymat va eksportni keskin oshirish bo'yicha takliflarni aytdi. Barcha fikr-muloqazlar ochiq muhokama qilinib, kerakli chora-tadbirlar belgilandi.

Avvalo, xususiy sektorda ishlovchi odamlarning daromadini ko'paytirish muhimligi ta'kidlandi. Shu maqsadda kamida 2,5 million so'm oylik maosh to'laydigan, 15 foiz ishchisi ehtiyojmand oiladan bo'lgan, tayyor mahsulot chiqaruvchi to'qimachilik va charm

korxonalariga yengilliklar beriladi. Ularning foyda solig'i ham, ishchisining daromad solig'i ham 1 foiz bo'ladi.

Davlatimiz rahbari shunday ijtimoiy mezon asosida boshqa tarmoqlarga ham qulaylik yaratishga tayyorligini bildirdi.

Endi tadbirkorlar bank krediti bilan cheklanib qolmasdan xalqaro standartlarga moslashib, chetdan mustaqil mablag' olib kelishi kerak. Buning uchun xalqaro konsalting kompaniyalarini jalb qilib, tadbirkorlarning tashqi moliya bozorlariga chiqishiga ko'maklashuvchi markaz ochilishi aytiladi.

Yurtimizda ishchilari 5 mingdan ziyod, yillik daromadi 1 trillion so'mdan oshgan 142 nafar "champion" tadbirkor bor. Ular "bir tarmoqdan – ko'p tarmoqli" korporatsiyaga aylanib, yondosh sohalarda rivojiga ham katta hissa qo'shayapti.

Bunday salohiyatli tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlab, boshqalarni ham ergashtirish maqsadida ularga yer va binoni to'g'ridan-to'g'ri berish, davlat korxonalarini ham uzoq muddatga boshqaruvga topshirish mumkin bo'ladi.

Ma'lumki, dunyodagi 10 ta eng boy kompaniyaning 7 tasi axborot texnologiyalari va moliyaviy xizmat sohalaridan chiqqan. Yurtimizda ham bunday kompaniyalar ko'payishi uchun qulayliklar oshiriladi. Xususan, ularga tadqiqot va rivojlanish markazlari (R&D) uchun laboratoriya jihozlarni, texnologik uskunalarini bojsiz olib kelishga ruxsat beriladi.

Mamlakatimizdagi mingga yaqin

konlarda 100 dan ortiq turdagi mineral xomashyo zaxirasi mavjud. Ularning negizida yuqori qiymatli mahsulotlar tayyorlanishi uchun yanvarda 400 ta yangi kon auksionga chiqarilishi ma'lum qilindi.

Munosabat

Tadbirkorimiz qancha boy bo'lsa, xalqimiz shuncha farovon yashaydi, davlatimiz shuncha qudratli bo'ladi. Tadbirkorning yutug'i – bu butun xalqimizning yutug'i.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi PrezidentiENERGIYA SOHASIDA
RAQOBATLI
BOZORGA O'TILADI

"Keng ko'lami islohotlarimizning ilk kunlaridan boshlab men bir fikrni doim ta'kidlab kelaman: tadbirkorlikni rivojlantirish – biz uchun strategik vazifa. Bizning tayanchimiz ham, suyanchimiz ham, eng katta kuchimiz ham shu sohada mujassam". Davlatimiz rahbari tadbirkorlar bilan muloqotda bildirgan ushbu fikrlar ishlabarmonlar qatlamining mamlakatimiz taraqqiyotida tutgan o'rniga yuksak bahodir.

Ta'kidlash joizki, sohani rivojlantirish maqsadida Prezident huzuridagi Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha jamoatchilik kengashi tashkil etildi. Mazkur kengash a'zolari davlat va biznes vakillari o'rtasida ko'priklar bo'lib, aniq takliflarni o'rtaga qo'yib kelayotgani yig'ilishda alohida bildirildi.

Natijada joriy yilning o'zida tadbirkorlar faoliyati uchun g'oyat muhim ahamiyatga ega bo'lgan 5 ta qonun, 101 ta Farmon va qaror qabul qilindi. Albatta, bu qonunlarning qabul qilinishida xalq vakillarining ham ishtiroki bor. Biz Prezidentimiz qo'yg'an ustuvor vazifalar jirosini ta'minlash maqsadida hududlarni o'rgandik, aholi va tadbirkorlar bilan muloqot olib bordik. Asosiysi, hamkorligimiz kelgusida ham davom etadi.

Yig'ilishda, shuningdek, biznes uchun yo'l, suv, elektr, gaz, temir yo'l kabi infratuzilma obyektlarini yaxshilashga bu yil 35 trln. so'm yo'naltirilgani qayd etilib, kelgusi yil yana 43 trln. so'm ajratish rejalashtirilgani ta'kidlandi. Senat yalpi majlisi byudjet muhokamasida ham bu masalalar teran tahlil qilindi.

Sa'y-harakatlar natijasida korxonalarini barqaror energiya bilan ta'minlash uchun elektr ishlab chiqarish 82 mlrd. kilovatt-soatga yetdi. Bu yil ishga tushgan 6,3 mlrd. dollarlik 17 ta yirik "yashil" va yangi texnologiyaga asoslangan energiya quvvatlari hisobiga kelgusi yilda qariyb 90 mlrd. kilovatt-soat elektr ishlab chiqariladi. Bu ishlar tizimli ravishda davom ettirilib 2025-yili yana 6,4 mlrd. dollarlik 25 ta loyiha doirasida 4,8 gigavatt yangi quvvatlar barpo etilishi ko'zda tutilmoqda.

Muloqotda Prezidentimiz endi energiya sohasida ham raqobatli bozorga o'tish vaqti kelganini ta'kidladi. Hozirgi kunda yurtimizda mustaqil energiya ishlab chiqaruvchilar soni 24 taga yetdi. Yana bir muhim yangilik – 2025-yili ilk bor elektr energiyasining onlayn ulgurji bozori ishga tushadi.

Energiya ishlab chiqarish bozor iqtisodiyotiga o'tsa, hozir uchrayotgan muammolar yechim topadi. Vaholanki, ayni paytda biz eskirgan tizim va uskunalar bilan turarjoylarni, ishlab chiqarish korxonalarini quvvatlayapmiz. Ammo bu yetarli emas. Yechim esa rivojlangan davlatlar tajribasiga asosan mustaqil energiya bozorini yaratishdir.

Jamila BOBONAZAROVA,
Oliy Majlis Senati a'zosi.

YIRIK NATIJALARNING ASOSI

Mamlakatimiz iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri sifatida turizmni jadal rivojlantirish uchun iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy jihatdan shart-sharoitlar yaratish, hududlarning ulkan turizm salohiyatidan to'liq hamda samarali foydalanish bugungi kun talabidir. Zero, milliy turizm mahsulotlarini jahon bozorlarida targ'ib qilish yurtimizning ijobiy qiyofasini shakllantirishda muhim hisoblanadi.

Prezidentimiz raisligida o'tkazilgan tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, joriy yil yakunlari hamda kelgusi yilning asosiy rejalari yuzasidan videoselektor yig'ilishi va yetakchi biznes vakillari bilan muloqotda ham ushbu sohaga alohida e'tibor qaratildi.

Unda ta'kidlanganidek, turizm sohasida mamlakatimizda sezilarli islohotlar amalga oshirilmoqda. Tadbirkorlar sarmoyasi bilan 24 ming o'rinli mehmonxonalar ishga tushdi. Qolaversa, uy mehmonxonalar tizimi paydo bo'ldi hamda o'zining ijobiy natijasini berayotir.

Kelgusi yili esa mehmonxona o'rinlari yana 30 mingtaga oshadi. Tadbirkorlar bunga 10 trillion so'm investitsiya kiritishga tayyor ekani aytib o'tildi. Bu yil ishga tushgan 17 ta yirik savdo va turistik maskanga qo'shimcha yana 25 ta ana shunday majmua qo'shiladi. Bo'stonlikda

10 milliard dollarlik yirik markaz qurilishini boshlashga kelishib olindi. Shuningdek, mamlakatimizga dunyoning nufuzli "Swissotel", "Sheraton", "Ritz-Carlton", "Novotel", "Pullman", "Marriott", "Ibis", "Mercure" kabi mehmonxona brendlari kirib kelmoqda.

Bu ishlar Prezidentimiz tomonidan olib borilayotgan oqilona tashqi va investitsiyaviy siyosat, barcha davlatlar bilan do'stona hamda pragmatik munosabatlar, O'zbekistonning iqtisodiy salohiyati xalqaro talablar asosida takomillashayotgani mahsulidir.

Zero, turizm – tadbirkorlik sohasining barcha tarmog'ini rivojlantirish uchun iqtisodiy va ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar yirik natijalar asosi hisoblanadi.

Odiljon MAMATKARIMOV,
Oliy Majlis Senati a'zosi.

G'OYA VA TASHABBUSLAR QO'LLAB-QUVVATLANADI

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev raisligida mamlakatimizda tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha joriy yil yakunlari va 2025-yilga asosiy rejalari yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida dolzarb masalalar ko'tarildi. Ayniqsa, joylarda hokimlar har bir tadbirkor bilan ko'proq muloqot qilgan holda korxonalariga borib, ularning dardi bilan yashashi kerakligi ko'rsatib o'tildi.

Albatta, buning tasdig'ini statistik ma'lumotlardan ham ko'rishimiz mumkin. Bugun qaysi sohadagi rahbar bo'lmasin, jon kuydirib, tadbirkorlar bilan ishlab, ularning muammosini hal etgan bo'lsa, o'sha hududlarning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari yildan-yilga o'sib bormoqda. Bundan anglashiladiki, o'zaro muloqot amaliy ishlar

samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Yana bir jihat, biznes uchun yo'l, suv, elektr, gaz, temir yo'l kabi infratuzilma obyektlarini yaxshilashga joriy yilda 35 trln. so'm mablag' yo'naltirilgani, kelgusi yilda yana 43 trln. so'm mablag' ajratilishi rejalashtirilgani quvonarli hol, albatta.

QULAY BIZNES MUHITI VA YANGI IMKONIYATLAR

Davlatimiz rahbari tadbirkorlar bilan bo'lib o'tgan muloqotni "tadbirkorlikni rivojlantirish – biz uchun strategik vazifa" so'zlari bilan boshladi. Darhaqiqat, tadbirkorlik davlat iqtisodiyotida strategik o'rin tutadi, chunki u iqtisodiy o'sish, yangi ish o'rinlari yaratish va jamiyat farovonligini oshirishda asosiy vositalardan biridir.

Joylarda har bir hokim tadbirkorlarni doimiy tinglashi, ularga har tomonlama ko'makdosh bo'lishi kerakligi ham uchrashuv davomida alohida ta'kidlandi.

Ushbu sohani keng ko'lamda, jadal rivojlantirishda jamoatchilik kengashlarining o'rni urg'u berildi.

Keyingi yillarda sohadagi islohotlar, imzolangan qonun va qarorlar natijasida milliy iqtisodiyotimizda pul aylanmasi anchagina oshdi. Birgina misol, korxonalarining banklardagi mablag'i 20 trln. so'mga, aholi omonatlari 25 trln. so'mga ko'paydi. Bu raqamlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda yildan-yilga fiskal muvozanat yaxshilanib bormoqda.

Shuningdek, yil yakuniga qadar jami 275 trln. so'mlik kreditlar

ajratilishi rejalashtirilgan, keyingi yilda bu raqam 300 trln. so'mdan ortishi prognoz qilinmoqda. Shu bilan bir qatorda, kichik biznes hajmini yanada oshirish maqsadida ularga ajratilayotgan kreditlar 120 trln. so'mga yetkazilishi uchun amaliy harakatlar boshlangan.

Samarali tadbirkorlik faoliyati uchun yana bir strategik masala – bu, shubhasiz, infratuzilma obyektlari hisoblanadi. Faol biznes muhitini yaratishda infratuzilmaning ahamiyati katta. Chunki u tadbirkorlarning samarali faoliyatini yuritishi, resurslardan unumli foydalanishi va biznes rivojlanishini ta'minlashda muhim omildir. Aynan ushbu yo'nalishda 2024-yilda jami 35 trln. so'm mablag' sarflangan. Kelgusi

yilda yana 43 trln. so'm infratuzilma obyektlari uchun yo'naltiriladi.

Tadbirkor uchun yana bir yaxshi xabar bu, albatta, davlatimiz Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish uchun dadil qadamlar tashlaganidir. Aynan ushbu jarayonda AQSH va Xitoy kabi yirik davlatlar bilan kelishuvlarga erisha olganimiz kelajakda tadbirkorlarimiz uchun katta eshiklar ochilishiga ko'maklashadi.

Umuman olganda, tadbirkorlik davlat iqtisodiyotining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, u innovatsiyalarni rivojlantirish, yangi imkoniyatlar yaratish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Shu sababli, davlat tomonidan tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash siyosati strategik ahamiyatga ega bo'lib, uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun zarur.

Otabek MUSURMONOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Byudjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasi a'zosi.

oshgani ham iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda ayni muddao.

Davlatimiz rahbari tadbirkorlarning ezuq maqsad bilan ilgari suradigan har qanday g'oya va tashabbusini qo'llab-quvvatlashga tayyorligini bildirdi. O'z navbatida, biz, deputatlar jamiyatimizning eng ilg'or vakillari huquq va manfaatlarini ta'minlash, ushbu yo'nalishdagi ishlar samaradorligini oshirish, sohaning huquqiy asosini takomillashtirishga oid ishlarimiz natijadorligini kafolatlashimiz maqsadga muvofiqdir.

Shokirjon AHMEDOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Tadbirkorlik, raqobatni rivojlantirish va sanoat masalalari qo'mitasi a'zosi.MIGRATSIYA BOSHQARUVIGA
OID MASALALAR MUHOKAMASI

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Migratsiya bo'yicha xalqaro tashkilotning O'zbekistondagi missiyasi rahbari Endryu Grey bilan uchrashuv o'tkazdi.

Muloqot

migratsiya sohasidagi ishlar davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilayotgani, bu borada 2019-yili Migratsiya bo'yicha xalqaro tashkilotning to'liq a'zosi sifatida hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilgani e'tirof qilindi.

Shuningdek, mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga solish va yangi mexanizmlarni amaliyotga joriy etish maqsadida 16 ta normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi. Yangi ishga joylashish mexanizmlari yaratilgani, ta'lim

dasturlari, imtiyozli kreditlash va Vatanga qaytgan muhojirlarni qo'llab-quvvatlash tizimlari tashkil etilgani aytib o'tildi.

O'zbekiston mehnat migratsiyasi bozorlarini diversifikatsiyalash, an'anaviy yo'nalishlarga bog'liqlikni kamaytirish va muhojirlarning ijtimoiy himoyasini ta'minlashni kuchaytirish borasida o'zaro fikr almashildi.

Uchrashuvda tomonlar migratsiya boshqaruvini takomillashtirish, xavfsiz va tartibga solinadigan migratsiya jarayonlarini ta'minlash, muhojirlar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan amaliy choralarini ko'rish yuzasidan yanada faol ish olib borishdan manfaatdorligini bildirdi.

"Xalq so'zi".

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

SUV KODEKSI LOYIHASI
TAKOMILLASHTIRILMOQDA

Prezidentimiz har bir nutqida suvdan samarali foydalanish, suv tejavchi texnologiyalarni keng joriy qilish masalalariga alohida e'tibor qaratadi. Xususan, BMTning Boku shahrida o'tkazilgan Iqlim o'zgarishi bo'yicha konferensiyasida ham davlat rahbari tomonidan suvdan foydalanishda samaradorlikni oshirish, transchegaraviy suv resurslari ifloslanishining oldini olish bo'yicha muhim takliflar ilgari surilgandi.



Kecha Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Agrar va suv xo'jaligi masalalari qo'mitasi tomonidan o'tkazilgan seminarda quyi palatada ikkinchi o'qishga tayyorlanayotgan Suv kodeksi loyihasining mazmun-mohiyati, unda aks etayotgan muhim normalar ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, mamlakatimizda "O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida suv resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlash, suv xo'jaligi obyektlarini modernizatsiya qilish va suvni tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etishni qo'llab-quvvatlash, sohada raqamlashtirish ishlarini hayotga tatbiq qilish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, Suv kodeksi loyihasida qator muhim normalar o'z aksini topayotir. Jumladan, mamlakatning suv xavfsizligiga erishish, global suv taqchilligi kuchayib borayot-

gan davrda barcha iqtisodiyot tarmoqlarining va atrof-muhitning ushbu resursga bo'lgan ehtiyojini qondirish, tabiat in'omi bo'lgan mazkur ne'matdan oqilona foydalanish, suv infratuzilmasining hamda sug'oriladigan yerlarning holatini yaxshilash kabi masalalar qamrab olingan.

Loyihani ikkinchi o'qishga tayyorlash davomida sohadagi munosabatlarni izchil va tizimli hal etish, suvdan foydalanishda fuqarolar mas'ulligini belgilash, suvdan oqilona foydalanishda zarur shart-sharoitlar yaratish, suv yetkazib beruvchilar va iste'molchilar o'rtasidagi munosabatlarda shaffoflikni ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shuningdek, kodeks loyihasida aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va ekotizimni suv bilan barqaror ta'minlash, ifloslanish, bug'lanish hamda kamayib ketishidan muhofazalashda zamonaviy

usullarni qo'llash va zararli ta'sirlarning oldini olish hamda uni bartaraf etish choralarini ko'rishga qaratilgan normalar belgilanayotir.

Deputatlar atrof-muhit uchun suvdan foydalanishning ekologik xavfsiz darajasiga erishish hamda uni saqlash, suv resurslarini iqlim o'zgarishini inobatga olgan holda oqilona boshqarish va ularning hisobotini yuritish, suv obyektlari muhofaza zonalarini belgilash, toza ichimlik suvi ta'minotini yo'lga qo'yish masalalari ham kodeksda o'z aksini topishi lozimligini bildirdi. Kodeks loyihasida belgilanayotgan normalar suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, sohaga investitsiyalarni jalb etishga xizmat qilishi ta'kidlandi.

Seminar yakunida suv kodeksi loyihasini pishirish-puxta holatga keltirishga qaratilgan vazifalar belgilab olindi va tegishli tavsiyalar ishlab chiqildi.

"Xalq so'zi".



Muloqot chog'ida migratsiya bo'yicha xalqaro tuzilma bilan faol hamkorlik, tashkilotning xavfsiz, tartibli va muntazam migratsiyani targ'ib qilish bo'yicha faoliyati O'zbekistonning milliy ustuvor yo'nalishlariga to'liq mos kelishi qayd etildi.

Keyingi yillarda Prezident Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi O'zbekistonda

Oliy Majlis Senatida

PARLAMENT – YOSHLAR NIGOHIDA

Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi tashabbusi bilan "Parlament – yoshlar nigohida" mavzuida davra suhbatlari tashkil etildi.

Unda senatorlar, O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi talabalari va ommaviy axborot vositalari vakillari qatnashdi.

Davra suhbatida senator Zumrad Bekatova ishtirokchilarga Konstitutsiyaning mazmun-mohiyati hamda parlament vakolatlarining muhim jihatlari, xususan, Prezidentimizning Oliy Majlis Senati birinchi yalpi majlisidagi nutqida parlament yuqori palatasi oldiga

qo'yg'an vazifalar mazmun-mohiyatini batafsil tushuntirdi.

Bu borada Senat tomonidan qanday chora-tadbirlar ko'rilayotgani, qonunlar muhokamasi va parlament nazorati, ayniqsa, byudjet masalalari muhokamasida mahalliy Kengashlar deputatlarining faol ishtirokini ta'minlash, ularga uslubiy ko'mak berish yo'lida amalga oshirilayotgan ishlarga alohida to'xtalib o'tildi.

So'zga chiqqanlar mamlakatdagi sud-huquq sohasidagi islohotlar va jinoyatlarni tergov qilish borasida malakali kadrlar tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etishga O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi munosib hissa qo'shib kelayotganini ta'kidladi.

Adolatli huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo qilish masalasi ustuvor maqsadlardan biri ekani qayd etildi. Ishtirokchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarga senatorlardan batafsil javob oldi.

"Xalq so'zi".

SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINING
ISTIQBOLLI MEXANIZMIISLOHOTLAR
INSON UCHUN!

Mamlakatimizda tibbiyot sohasidagi islohotlar natijasida 2024-yilda muayyan ishlar amalga oshirilmogda. Xususan:

– davlat tibbiy sug'urtasi joriy etilayotgan hududlarda kasalliklarni ambulator davolash uchun shifokorlar rasmiylashtirgan elektron retsept asosida dorixonalar tomonidan dori vositalarini bemorlarga bepul berish tizimi (reimbursatsiya) yaratildi;

– Toshkent shahri va Sirdaryo viloyatida tibbiy sug'urta mexanizmlari joriy qilindi, Qoraqalpog'iston Respublikasida esa tayyorgarlik ishlari olib borilmoqda;

– davlat tibbiy sug'urtasi tizimini boshqa hududlarda 2026-yil yakuniga qadar joriy etish rejalashtirilgan.

Shuningdek, kelasi yili muhtoj odamlarning jarrohlik amaliyoti uchun Tibbiy sug'urta jamg'armasiga qo'shimcha 185 mlrd. so'm ajratiladi. Umuman, Davlat byudjetidan sog'liqni saqlash tizimiga joriy yilda 33,4 trln. so'm ajratildi.

Davlat tibbiy sug'urtasi tibbiy xizmatning yangi rakursi sifatida sohaga keng tatbiq etilmogda. Birlamchi tizimda "elektron poliklinika" dasturi asosida ortiqcha qog'ozbozlikka chek qo'yilmogda. Shifoxonalarni zamonaviy avtomashinalar va tibbiy jihozlar bilan ta'minlash har qachongidan yuqori darajaga ko'tarildi.

Tibbiyot

Mamlakatimizda ilk bor Sirdaryo viloyati sog'liqni saqlash tizimida davlat tibbiy sug'urtasi joriy etilgani ko'plab insonlarga kafolati tibbiy yordam bilan birga sifatli maslahat-tashxis, davolash, sog'lomlashtirish va boshqa turdagi tibbiy xizmatlardan foydalanish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratilmogda. Prezidentimizning 2020-yil 12-noyabrda "Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida amalga oshirilgan ushbu mexanizm kutilgan natijasini bermogda.

Eng muhimi, endi bemor oilaviy shifokor yo'llanmasi asosida bepul tibbiy yordam olish imkoniga ega bo'ldi. Kasallikni erta bosqichda aniqlash, davolash maqsadida

421 ta tibbiyot brigadasi, 202 ta ko'rik xonasi tashkil qilindi. Shuningdek, bemorlar tuman, shahar shifoxonalari to'g'ridan-to'g'ri emas, balki oilaviy shifokor yo'llanmasi bilan murojaat qiladigan bo'ldi. Tor soha mutaxassislariga murojaatlar soni esa 11 foizga kamaydi.

Mazkur mexanizm asosida kafolatlangan paket doirasidagi xizmatlar yo'lga qo'yilib, oilaviy shifokorlik punktlari, oilaviy poliklinika va ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalar 235 turdagi asosiy dori vositalari, 76 turdagi tibbiy vositalar bilan ta'minlandi. Davlat tibbiy sug'urta jamg'armasining "Reimbursatsiya" dasturi doirasida elektron retsept asosida "Surunkali kasalliklar (yurak ishemik kasalligi, yuqori qon bosimi, qandli diabet II turi, bronxial astma va o'pkaning surunkali

obstruktiv kasalligi) bilan og'riyidigan bemorlarni 11 turdagi dori vositalari bilan kafolati ta'minlash tizimi joriy etildi.

Yana bir muhim jihat, davlat tibbiy sug'urtasi tufayli sohani moliyalashtirish yo'nalishida ham ijobiy natijalar kuzatildi. Xususan, mahalliy byudjetdan ajratilgan mablag'larni konsolidatsiya qilib, mablag'larni tibbiyot muassasalari bo'yicha ularning hududiy joylashuvidan qat'i nazar, erkin taqsimlash imkoniyati yaratildi. Shuningdek, tibbiyot muassasalariga birkirilgan aholi soni va tarkibi (yoshi, jinsi) asosida aholi jon boshiga moliyalashtirish yo'lga qo'yildi. Natijada tuman va shaharlarning tutash chegarasida yashovchi aholiga geografik joylashuvi bo'yicha o'ziga yaqin tibbiyot muassasasiga murojaat qilishi hamda aholining har bir a'zosi uchun ajratilgan mablag'ni u murojaat etgan tibbiyot muassasasiga yo'naltirish yo'lga qo'yildi.

Qolaversa, ajratilgan mablag'lardan foydalanish bo'yicha tibbiyot muassasalari moliyaviy mustaqillik berildi. Bunda tibbiyot muassasalari ajratilgan mablag'larni ehtiyojdan kelib chiqib, erkin taqsimlash huquqiga ega bo'ldi.

Eng asosiysi, ushbu mexanizm tufayli aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat sifati oshdi. Kasalliklarni erta bosqichda aniqlash, davolash borasida olib borilayotgan ishlar natijasida yuqumli bo'lmagan kasalliklar soni sezilarli darajada kamaydi.

Yusuf MIRXONOV,
Sirdaryo viloyati sog'liqni saqlash boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari.



Vatan himoyasi – muqaddas burch

YANGI O'ZBEKISTON
ARMİYASI –
XALQIMIZ FAXRI

Jizzaxda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 33 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan "Yangi O'zbekiston armiyasi – mamlakat tayanchi, xalqimiz faxri" shiori ostida vatanparvarlik festivali o'tkazildi.

So'zga chiqqanlar ushbu bayram aholi hamda yoshlar qalbidagi vatanparvarlik tuyg'ulari jo'sh urishiga, yurtimiz tinchligini asrab-avaylashda daxldorlik tuyg'ularini yuksaltirishga xizmat qilishini ta'kidladi.

Festivalning badiiy qismida harbiy orkestr ijrosidagi ona Vatanni ulug'lovchi, tinchlikni

tarannum etuvchi kuy-qo'shiqlar barchaga ko'tarinki ruh, bayramona kayfiyat ulashdi.

Shuningdek, harbiy texnika va anjomlar ko'rgazmasi, qo'l yangi sahnalari hamda Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlarining ko'rgazmali chiqishlari yurtodshlarimizda katta taassurot qoldirdi.

YUKSAK E'TIBOR SAMARASI

Qurolli Kuchlar Akademiyasida Mudofaa vazirligi qo'shinlarida yoshlar ma'naviyati va intellektual salohiyatini oshirish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning dolzarb masalalariga bag'ishlangan "Yosh harbiylar forumi" tashkil etildi.

Forum yosh harbiy xizmatchilarning sohaga oid innovatsion g'oyalari va ishlarnalari ko'rgazmasi, yosh harbiy adib hamda shoirlarning to'plamlari taqdimoti, "Yoshlar kutubxonasi" hamda "Mard askarga sovg'a" rukni ostida nashr etilgan badiiy adabiyotlar ko'rgazmasi bilan boshlandi.

O'zbekiston mudofaa vazirligining "Yosh harbiylar forumi" ishtirokchilariga murojaati tinglandi. Shundan so'ng

harbiy xizmatchilar va sportchilar erishilayotgan yutuqlar yuksak e'tibor samarasi ekanini faxr bilan ta'kidladi.

Yakunda otaliqqa olingan yoshlar bilan ishlashda jonbozlik ko'rsatgan bir guruh harbiy



xizmatchilarga esdalik sovg'alari topshirildi.

HARBIY SUDNING KO'RKAM BINOSI

Qoraqalpog'iston Respublikasida Nukus harbiy sudi binosi foydalanishga topshirildi.

Zamonaviy dizayn va barcha qulaylikka ega ushbu binoda 50 o'rinni sud zali, sud raisi, sudyalalar, advokatlar, prokurorlar va xodimlarga mo'ljallangan xizmat xonalari, tibbiyot punkti, kutubxona, sudlanuvchilarni saqlash joyi hamda 8 ta sanitar tizim barpo etilgan.

Sudning ochiqqligi, shaffofligini ta'minlash, fuqarolarga qo'shimcha yengilliklar yaratish uchun mazkur sud binosi videokonferensaloqa tizimi, audiofiksatsiya, infokiosk, korporativ tarmoq kabi eng ilg'or axborot-telekommunikatsiya vositalari bilan jihozlangan.

Ma'lumot uchun, 2021 – 2025-yillarga mo'ljallangan tegishli dastur asosida jami 107 ta sud zamonaviy bino bilan ta'minlangan.

Rahim SHERQULOV
("Xalq so'zi") tayyorladi.

Yaponiya budjeti
oshirilmogda

"Kyodo" agentligining ma'lum qilishicha, Yaponiya hukumati 2025 moliyaviy yil uchun byudjet loyihasini tasdiqlatishni rejalashtirmogda. Byudjet loyihasi kelasi yil boshida parlamentga kiritilishi kutilmogda. Eslatib o'tamiz, Kunchiqar yurtda 2025 moliya yili apreldan boshlanadi.

Qayd etilishicha, kelgusi yilda mamlakat byudjeti 113 trillion iyenadan oshadi. Bu – qariyb 735 milliard AQSH dollariga teng.

Mamlakatdagi barcha vazirlik va idoralar tomonidan so'ralgan umumiy mablag' 117,6 trillion iyena (762 mlrd. dollar)dan ortiq. Moliya vazirligi hozirda barcha so'rovlarini ko'rib chiqmogda.

Xalqaro firibgarlik
tarmog'i fosh qilindi

Germaniya politsiyasi qator mamlakatlar huquq-tartibot idoralari bilan qo'shma tadbir o'tkazdi. Unda o'zlarini salbiy vaziyatga tushib qolgan keksalarning qarindoshi sifatida ko'rsatib, aldab yurgan xalqaro firibgarlik tarmog'i fosh etildi.

Xabar qilinishicha, Frayburg prokuraturasi va Baden-Vyurtemberg federal o'lkasi politsiya boshqarmasi tomonidan o'tkazilgan keng ko'lami operatsiya natijasida jami 4 854 500 yevroga yaqin qiymatdagi 400 ta firibgarlik holatining oldi olindi.

Shuningdek, Polsha politsiyasi ham noqonuniy faoliyat bilan shug'ullangan Sall-markazni fosh etishga muvaffaq bo'ldi. Firibgarlarning infratuzilmasi yo'q qilinib, 20 nafar gumondor qo'lga olindi.

Xalqaro firibgarlik tarmog'iga qarshi Yevropol tomonidan qo'llab-quvvatlangan operatsiya noyabr oyi oxirida boshlangan. Ikki hafta davom etgan amaliyotda Avstriya, Vengriya, Germaniya, Lyuksemburg, Polsha, Slovakiya, Chexiya va Shveysariyadan politsiya xodimlari ishtirok etdi.

Dehlida havo sifati keskin
yomonlashdi

Havo sifati yomonlashgandan so'ng Dehli va yondosh hududlarda cheklovlar kuchaytirildi.

"Reuters" tarqatgan xabarda qayd etilishicha, bu 16-dekabr kuni havo sifati indeksi (AQI) ko'rsatkichi 400 dan oshib, "jiddiy" darajaga chiqqanidan keyin boshlangan. Davlat idoralari havo sifati bosqichma-bosqich belgilash haqidagi dastlabki tavsiyalar kengaytirilib, idoralarga xodimlarining 50 foiziga uyda turib onlayn ishlashga ruxsat berish talabi taqdim etilgan.

Havo sifati yomonlashgan bo'yicha komissiya ifloslanishning keskin oshishini "noqulay meteorologik sharoitlar va shamol yo'qligi" bilan izohladi. Shuningdek, komissiya ko'plab qurilish ishlarni taqiqlashni, bolalar, keksalar va surunkali kasalliklari bo'lganlarga ochiq havoda yurmaslik va imkon qadar uydan chiqmaslikni tavsiya etmogda.

Kosmik baza shaharga
aylantiriladimi?

"Associated Press" axborot agentligining xabar berishicha, "SpaceX" kompaniyasi o'zining "Starbase" kosmik bazasini Texasda yangi shaharga aylantirishni rejalashtirmogda. Qayd etilishicha, Ilon Mask yaqin atrofda aholidan yangi administrativ tuzilma tashkil etish haqida so'rovnomaga o'tkazmogda.

"SpaceX" bosh qarorgohi endi rasman Texasning "Starbase" shahrida bo'ladi" deydi Ilon Mask o'zining "X" dagi sahifasida.

Bu "Starbase"ni mustaqil shahar qilishga dastlabki urinish emas. Mask bu g'oyani 2021-yilda ham ilgari surgan edi. Hozirgi kunda "Starbase" maydonida "SpaceX" kompaniyasining 3400 dan ortiq xodimlari ishlamoqda.

Eng yirik iqtisodiyotga ega
davlatlar

"Visual Capitalist" portali mutaxassislari Xalqaro valyuta jamg'armasining 2024-yil ma'lumotlaridan foydalangan holda yalpi ichki mahsulot bo'yicha dunyoning eng yirik iqtisodiyotlarining xarid qobiliyati pariteti bilan sozlangan infografikasini yaratdi.

Unga ko'ra Xitoy 2014-yildan beri dunyo iqtisodiyotlari orasida birinchi o'rinni saqlab qoldi. AQSH ikkinchi, Hindiston uchinchi o'rinda turibdi.

Eslatib o'tamiz, xarid qobiliyati paritetidan foydalangan holda qayta hisob-kitob qilish mamlakat iqtisodiyotidagi joriy narxlar darajasiga va valyutaning xarid qobiliyatiga tayanish imkonini beradi.

Internet xabarlarini asosida
Sharofiddin TO'LAGANOV tayyorladi.

Parkent tumanida 2025-yilning 1-martiga qadar 50 ta havo shari va deltaplan loyihasi ishga tushiriladi.

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G 542, 14 275 nusxada bosildi. Hajmi – 2 ta boq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuktak olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahriyrga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va ummulligga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obmami rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahriyriyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begunratov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir A. Norqulov.
Musahhib Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonalar manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 23.26 Topshirildi — 01.15 1 2 3 4 5 6